

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

MIRZAYEV VALIJON TULQINOVICH

***CdSe_xS_{1-x}* VA *CdTe:In* ASOSIDAGI POLIKRISTALL
PLYONKALARNING FOTOELEKTRIK VA FOTOVOLTAIK
XOSSALARIGA IONLAR TERMO-MAYDON MIGRATSIYASINING
TA‘SIRI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

UDK: 621.315.592.3

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Mirzayev Valijon Tulqinovich

CdSe_xS_{1-x} va *CdTe:In* asosidagi polikristall plyonkalarining fotoelektrik va
fotovol'taik xossalariga ionlar termo-maydon migratsiyasining ta'siri.....3

Мирзаев Валижон Тулкинович

Влияние термополевой миграции ионов на фотоэлектрические и
фотовольтаические свойства поликристаллических пленок *CdSe_xS_{1-x}* и
CdTe:In.....26

Mirzaev Valijon Tulqinovich

The influence of thermal field migration of ions on photoelectric and photovoltaic
properties of polycrystalline films *CdSe_xS_{1-x}* and *CdTe:In*..... 50

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

MIRZAYEV VALIJON TULQINOVICH

***CdSe_xS_{1-x}* VA *CdTe:In* ASOSIDAGI POLIKRISTALL
PLYONKALARNING FOTOELEKTRIK VA FOTOVOLTAIK
XOSSALARIGA IONLAR TERMO-MAYDON MIGRATSIYASINING
TA‘SIRI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1199 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yuldashev Nosirjon Xaydarovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kuchkarov Qudratillo Mamarasulovich**
fizika-matematika fanlari doktori

Sobirov Maxmud Mamarasulovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiyaning himoyasi Farg‘ona politexnika instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__»__ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150107, Farg‘ona sh. Farg‘ona k. 86 uy. Tel: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: uzferfizika@mail.ru, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona politexnika institutning axborot–resurs markazi ilmiy-uslubiy bo‘limida tanishish mumkin. (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg‘ona sh. Farg‘ona k. 86 uy. Tel: (+99891) 328-32-69).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dagi _____

raqamli reestr bayonnomasi).

N.A. Sultanov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash raisi o‘rinbosari, f-m.f PhD, dotsent.

B.J. Axmadaliyev

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f-m.f PhD, dotsent

S.M Otajonov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda kondensirlangan muhit fizikasi sohasidagi olimlar A_2B_6 yarim o'tkazgich birikmalari asosida mikro va nano materiallar olish texnologiyasini rivojlantirishga va ularning yangi fizik xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Bugungi kunda kadmiy xalkogenidlarining qattiq eritmalari va geterostrukturlari asosida arzon narxdagi yorug'lik nurlatuvchi diodlar (LED), foto qabul qilgichlar, yaxshilangan optik va fotoelektrik xususiyatlarga ega fotolyuminaforlar keng qo'llanilmoqda. $CdS_xCdSe_yCdTe_z$ birikmalari asosida yupqa plyonkali quyosh batareyalari va fotoo'zgartirgichlar samaradorligini oshirish alohida qiziqish uyg'otmoqda. Fotosezgir nuqtaviy markazlar va donalararo chegaralar haqida yagona tasavvurlarga asoslangan anomal yuqori fotoo'tkazuvchanlik va fotovoltaiik xususiyatlarga ega yupqa polikristall plyonkalar va strukturalardagi fotoelektrik hodisalarni o'rganishga yangicha yondashuv fundamental ahamiyatga ega. Bu jihatdan $CdSe_xS_{1-x}$ qattiq qorishmalar va legirlangan $CdTe:In$ turdagi plyonkali strukturalar olishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va yangi fotoelektrik effektlarni o'rganish, ularning istiqbolli funktsional imkoniyatlarini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda rivojlangan mamlakatlar ilmiy laboratoriyalarida o'stirish sharoitlariga kuchli bog'liq bo'lgan yarim o'tkazgich polikristall plyonkalardagi yangi strukturaviy sezgirlik va fotoelektrik xususiyatlarini aniqlash masalalarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu sababli mikroelektronika sohasida $CdSe_xS_{1-x}$ qattiq qorishmasi asosida fotorezistiv polikristall plyonkali struktura olish texnologiyasini ishlab chiqish va fotoelektrik xususiyatlarini oshirish kinetikasini o'rganish; legirlangan $CdTe:In$ plyonkalarini olish texnologiyasini takomillashtirish orqali yaratilgan fotorezistiv va anomal fotovoltaiik xususiyatli plyonkalarni zamonaviy elektronikaning faol elementlari sifatida ishlatish vazifalari bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda yarim o'tkazgich materiallar fizikasi sohasida, xususan, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning fundamental fizik xususiyatlarini tavsiflash usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida "... iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini hayotning barcha sohalariga faol joriy etish, energiya samaradorligini oshirish..."¹ kabi dolzarb vazifalar qo'yilgan. Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun quyosh energiyasi asosida yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish, shuningdek, yangi optoelektron qurilmalarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan noyob elektrofizik xususiyatlarga ega kadmiy xalkogenidlarining qattiq

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi № UP-60 "2022-2026 yillarda "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

qorishmalaridan iborat yangi yarim o'tkazgich materiallarni yaratish katta ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi № UP-60 "2022-2026 yillarda "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 19-martdagi № PP-5032 "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori va 2020-yil 23-iyuldagi № 452 "Qayta tiklanadigan energiya manbalari o'rnatish va ular tomonidan ishlab chiqariladigan energiyani davlat hisobiga olishni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarorida, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan shunga o'xshash normativ-huquqiy hujjatlarda bayon etilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi. Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi PPI-3 "Energiya, energiya va resurslarni tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozlikni rivojlantirish"ga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'plab xorijiy ilmiy markazlarda *CdS*, *CdSe*, *CdTe* asosidagi plyonka tuzilmalarining elektr o'tkazuvchanlik, fotoo'tkazuvchanlik mexanizmlari, optik spektrlari va *CdTe* plyonkalarining fotovoltaik xususiyatlari batafsil o'rganilgan, ular optoelektronikada amaliy qo'llanilmoqda. Bunday ilmiy markazlar qatoriga Rossiya Fanlar Akademiyasining Lebedev nomidagi Fizika instituti va Ioffe nomidagi Fizika-texnika instituti, Ukraina Milliy Fanlar Akademiyasi Yarim o'tkazgichlar fizikasi instituti, AQShning Delaver universiteti, Yaponiya Milliy fanlar uyushmasining materialshunoslik instituti, V. Kapsukas nomidagi Vilnyus universiteti va boshqalarni kiritish mumkin. Hozirgi kunda kadmiy xalkogenidlaridan tayyorlangan polikristall plyonkalarining yuqori fotosezgirliги o'ziga xos chuqur sathli hajmiy lokal markazlarning mavjudligi va kristal donlar chegaraviy sohasidagi maxsus elektron xususiyatlar bilan bog'liqligi hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi ko'rsatilgan.

Fotovoltaik plenkalarni tayyorlash texnologiyasi va ularning asosiy fizik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha O'zbekistonning mashhur olimlari faol ish olib borgan. Saidov M.S., Mamadolimov A.T., Mirsagatov Sh.A., Razikov T.M., Sultonov N.A., Karimov M.A. va boshqalar tomonidan olib borilgan eksperimental ishlarda kadmiy xalkogenidlari yupqa plyonka strukturalarining fotoelektrik xususiyatlari va tok o'tish mexanizmlari o'rganilgan. E.A. Adirovich va uning shogirdlari, jumladan T.Mirzaxamudov, Yu.M. Yuabov, Farg'ona fiziklari E.I. Bilyalov, A.Ya. Afuzov, N.X.Yuldashevlarning original ishlarida kadmiy xalkogenidlari asosida yupqa plyonka texnologiyalari ishlab chiqilgan va ulardagi anomal fotovoltaik effektlarining fenomenologik nazariyasi qurilgan.

Ilgari CdS va $CdSe$ larning bir qator polikristall namunalarda anomal elektr o'tkazuvchanlik - ma'lum harorat oralig'ida qorong'ilikdagi tokning keskin kamayib ketishi kuzatilgan. Biroq bu effektning tabiati va uning mexanizmi haqida yakuniy to'liq tasavvur hozirgacha mavjud emas. $CdSe_xS_{1-x}$ qattiq qorishmalarning o'tkazuvchanlik mexanizmi temperatura va infraqizil nurlanish ta'sirda kompleks tadqiq qilinmagan. Shuningdek, anomal fotosezgir $CdSe_xS_{1-x}$ va fotovoltaik $CdTe:In$ polikristall plyonkalarining xususiyatlarining shakllanishida kristal don chegaralari va sezgirlik orttiruvchi r - va s - markazlar termo-maydon migratsiyasining roli tekshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Farg'ona politexnika institutida, xususan, institutning 2020-2025 yillarga mo'ljallangan istiqbolli ilmiy rejasida "Kadmiy xalkogenid birikmalarining yarim o'tkazgichli yupqa plyonkali tuzilmalarida yangi fotoelektrik va fotovoltaik hodisalar va mikroelektron fotokoo'zgartirgichlar ishlab chiqish" mavzusida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi $CdSe_xS_{1-x}$ qattiq qorishmalar va legirlangan $CdTe:In$ asosidagi yupqa plyonkali strukturalarini vakuumda termik bug'latish usuli bilan olishning optimal texnologik rejimlarini va ulardagi yangi fundamental fotoelektrik xususiyatlarni o'rnatishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

fotorezistiv $CdSe_xS_{1-x}$ va fotovoltaik $CdTe:In$ polikristall plyonkali strukturalarni olish texnologiyalarini takomillashtirish;

$CdSe_xS_{1-x}$ va $CdTe:In$ polikristall plyonkalarining anomal fotoo'tkazuvchanlik va fotovol'taik xususiyatlarini termik oshirish kinetikasini tadqiq etish;

optimal ravishda sezgirligi orttirilgan $CdSe_xS_{1-x}$ polikristall plyonkalarining foto va qorong'ilikdagi o'tkazuvchanligining haroratli va infraqizil so'nishi;

$CdSe_xS_{1-x}$ polikristall plyonkalarining lyuks-amper xarakteristikasida kristal don chegaralari va sezgirlik orttiruvchi r - va s - markazlarining rolini aniqlash;

$CdTe:In$ plyonkasining AFV xususiyatlarini shakllantirishda indiy ionlari va kadmiy vakansiyalari termo-maydon migratsiyasining o'ziga xos xususiyatini o'rnatish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida standart shisha yuzasiga termovakuum bug'latish usuli bilan olingan $CdSe_xS_{1-x}$ va $CdTe:In$ polikristalli plyonkalari tanlandi.

Tadqiqot predmeti $CdSe_xS_{1-x}$ va $CdTe:In$ plyonkalarini olish texnologik jarayonlari, shuningdek ularda sodir bo'ladigan elektrofizik, fotoelektrik va fotovoltaik hodisalaridir.

Tadqiqot usullari. Ishni bajarishda xalqaro standartga mos bo'lgan, vakuumda termik bug'latish usuli, rentgen nurlari diffraksiya usuli hamda qattiq jismlar fizikasidagi zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanligini o'lchashning Xoll usuli hamda volt-amper, lyuks-amper, lyuks-volt va spektral xususiyatlarini tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$T_t=250-350$ °C haroratda shisha taglik ustida termik bug‘latish tezligini va qalinlikni boshqarish bilan o‘stirish hamda maxsus termik ishlov berish orqali fotorezistiv $CdSe_xS_{1-x}$ va fotovoltaiik $CdTe:In$ polikristall plyonkalar olish texnologiyalarining optimal rejimlari aniqlangan;

birinchi marta $CdSe_xS_{1-x}$ fotorezistorlar LAX ining boshlang‘ich qismida mikropotensial to‘siqlarga bog‘liq yangi soha kuzatildi va u kristall donlar chegarasidagi sirt holatlarining kvazineytral hajmdagi va fazoviy zaryad sohasidagi generatsiya-rekombinatsiya jarayonlariga ta'siri orqali ekanligi ko‘rstilgan;

$CdSe_xS_{1-x}$ polikristall plyonkalarining qorong‘ulikdagi elektr o‘tkazuvchanligining haroratli va infraqizil nurlanish ta’sirida so‘nish effektlari topildi hamda ular termo-maydon migratsiyasi tufayli hosil bo‘lgan bir va ikki zaryadli kadmiy vakansiyalarini zaryadli holatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligi aniqlangan;

indiy bilan legirlangan $CdTe$ plyonkalarga termik ishlov berish jarayonida indiy ionlari, kadmiy vakansiyalarining termo-maydon migratsiyasi va o‘z-o‘zini kompensatsilash effektlari tufayli namunaning fotovol’taik xususiyatlari keskin kuchayishi, fotokuchlanishning termik ishlov kinetikasini tahlil qilish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagidan iborat:

fotorezistiv $CdSe_xS_{1-x}$ va fotovoltaiik $CdTe:In$ polikristall plyonkali strukturalarini termovakuum bug‘latish usuli bilan olishning optimal texnologik rejimlari yaratilgan.

arzon va samarali fotoo‘zgartirgichlarga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan $CdSe_xS_{1-x}$ va $CdTe:In$ yupqa plyonkalarining fotoelektrik va fotovoltaiik parametrlarini maqsadli boshqarish usullari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Zamonaviy qattiq jismlar fizikasi o‘lchov va tahlil usullaridan foydalanish, olingan ilmiy natijalarni etakchi jurnallarda e’lon qilingan boshqa mualliflarning ishlari natijalariga mos kelishi, olingan eksperimental natijalarning mavjud nazariy ma’lumotlarga zid kelmasligi va tasdiqlangan fizik modellar doirasida izohlab berilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, qattiq qorishmali $CdSe_xS_{1-x}$ va legirlangan $CdTe:In$ plyonkalarida birinchi marta eksperimental ravishda aniqlangan "muvozanatli o‘tkazuvchanlikining harorat va infraqizil nurlanish bilan so‘nishi" va "ionlar termo-maydon migratsiyasi hisobiga AFV xususiyatlarni kuchaytirishtirish" effektlari qattiq jismlar fizikasining fotoelektrik va fotovoltaiik hodisalar haqidagi tushunchalarni kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, qattiq qorishmali $CdSe_xS_{1-x}$ va legirlangan $CdTe:In$ plyonkalari asosida fotosezgir va fotovoltaiik plyonkalar olishning ishlab chiqilgan usullaridan, arzon optoelektron qurilmalar vidikonlar, integral ko‘p elementli fotoqabul qilgichlar va fototranzistorlarni yaratishda qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yupqa qatlamli polikristall $CdSe_xS_{1-x}$ va $CdTe:In$ strukturalarning olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda fotoelektrik va fotovoltaik xossalarga termo-maydon migratsiyasining ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

polikristal $CdSe_xS_{1-x}$ yupqa qatlamlarining fotoelektrik xossalarini va $CdTe:In$ kristall donlarining chiziqli davriy assimetrik strukturalarida yuqori kuchlanishli foto-EYKni tadqiqot usullari OT-F2-70 «Katta ma'lumotlarga asoslangan intellektual (AI) qayta tiklanadigan energiya tarmoq tizimini tadqiq qilish va qo'llash» ilmiy loyihani bajarishda qo'llanilgan (loyiha rahbari: f.-m.f.f.d., dots. S.Aliyev, Andijon mashinasozlik institutining 2024-yil 22 noyabrda 38-03-2358-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish yorug'likning xususiy va kirishmali yutilishida kuchli legirlangan yarimo'tkazgichli strukturalarda elektron kinetik hodisalarning fizik mexanizmlarini tahlil qilish imkoniyatini bergan;

fotorezistiv $CdSe_xS_{1-x}$ polikristall plyonkali strukturalarini termovakuum bug'latish usuli bilan olishning optimal texnologik rejimlarini o'rnatish va fotosezgirlikni orttirish jarayonlarining kinetikasini o'rganish natijalaridan Davlat ilmiy dasturlari doirasida 2022-2024 yillarda "Zenit" shifrlı (yopiq) amaliy loyihani bajarishda (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, 2025-yil 9-yanvardagi 57-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Ilmiy natijalardan foydalanish Zirhli texnikaning anologli boshqarish tizimini raqamlashtirishda deformatsiya va yorug'likning ta'sirlarini o'rganish bo'yicha olingan nazariy va eksperimental ma'lumotlarni ma'lum darajada tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalari aprotatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tdi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, 1 tasi Scopus bazasida indekslangan konferensiyada, 2 tasi yuqori Impact Factorga ega xalqaro ilmiy jurnallarda, 8 tasi Respublikamizda o'tkazilgan Xalqaro konferensiyalar va 1 tasi xorijiy konferensiya materiallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, 130 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan bo'lib, uning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati qisqacha asoslab berilgan, tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi aniqlandi, dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy ishlar va muammoning o'rganilganligi darajasi bo'yicha qisqacha sharh berildi, maqsad va vazifalar shakllantirildi, tadqiqot


ob'ekti, predmeti va usullari aniqlandi, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etildi, olingan natijalar ishonchliligi asoslandi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berildi, natijalarni joriy etish va aprobatsiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirildi.

Birinchi bobda "Kadmiy xalkogenidlari asosidagi plyonkalarining fotoo'tkazuvchanligi va fotovoltaik xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlarning hozirgi holati" deb nomlangan bobda $CdSe$, CdS dan fotosezuvchan plyonkalarni ishlab chiqarish va ularni o'rganish texnologiyasi bo'yicha ishlarning qisqacha sharhi va $CdTe$ fotovoltaik plyonkalari haqida mavjud adabiyotlarni tahlil qilish natijalari keltiriladi. Ular asosida yupqa polikristalli plyonkalarni olish texnologiyasi, xususiyatlarini o'rganish masalalari ko'rib chiqiladi. Ma'lum elektr o'tkazuvchanlik mexanizmlari, fotoo'tkazuvchanlikning xarakterli xususiyatlari va plyonka tuzilmalarining fotovoltaik xususiyatlari ko'rib chiqildi. Ma'lum natijalarni tanqidiy tahlil qilish asosida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirildi.


Ikkinchi bobda " $CdSe_xS_{1-x}$ va $CdTe:In$ plyonkalarini olish texnologiyasi va ularni o'rganish usullarini ishlab chiqish" deb nomlangan bobda fotosezuvchan plyonkalarni olish texnologiyasi masalalari ko'rib chiqiladi. $CdSe$, $CdSe_xS_{1-x}$ dan fotosezgir plyonka olish usuli, yangi tayyorlangan plyonkani kvaziberk kamerada, havoda $CdCl_2$ yoki $CuCl_2$ ishtirokida TIB usuli ishlab chiqilgan bo'lib, u sezgirlikni oshiruvchi moddalarning bir tekis diffuziyalanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, $CdTe:In$ plyonkalarini indiy bilan legirlashning o'ziga xos xususiyatlari va uning fotovoltaik xususiyatlarini sezgirlash kinetikasi bayon qilingan.

$CdSe_xS_{1-x}$ plyonkalarini olish uchun VUP-5M nomli avtomatik boshqaruvli vakuum qurilmasi va "VAKMA" 2NVR-5 DM turdagi forvakuum nasosi $\sim 10^{-4}$ mm.sim.us. bosimni ta'minlaydigan "VAKMA" NVDM-160 bug'-moy diffuziya nasosi asosida vakuum qurilmasi yig'ilgan. (1.a. Rasm). Bug'lantirgich sifatida alyuminiy oksidi yoki berilliydan tayyorlangan tigellar, taglik sifatida esa shaffof kontaktli shisha va slyuda ishlatilgan.

Tagliklar va bug'lantirgichning harorati ularga to'g'ridan-to'g'ri o'rnatilgan xrom-alyumel termojuftlari yordamida nazorat qilindi. $\sim 10^{-4}$ mm.sim.us vakuumga erishilgandan so'ng, tagliklarni 30 daqiqa davomida $T=573$ K haroratda qizdirib, gabsizlantirish amalga oshirildi. $CdSe_xS_{1-x}$ plyonkalari "yarim o'tkazgich" toifasiga kiradigan $CdSe$ va CdS aralashmasini turli nisbatlarda bug'lantirish orqali olindi. Plyonkaning fotosezgirlikni oshirish uchun ular havoda, vakuumda va $CdCl_2$ yoki $CuCl_2$ bug'lari bo'lgan gazli muhitlarda termik ishlov berildi. Yangi tayyorlangan plyonkalarni termik ishlov berish (TIB) ikki qismdan iborat maxsus konstruksiyali pechda amalga oshirildi (1.b. Rasm). $400-500$ °C haroratda sezgirlashtiruvchi moddalar bug'larining zarur qisman bosimini ta'minlaydigan kamera hajmi optimal ravishda tanlandi.




1.a. Rasm. $CdSe$ plyonkalarini olish uchun vakuum kamerasing sxematik ko'rinishi, $CdSe_xS_{1-x}$ 1-tigel (bug'latgich); 2-taglik ushlagichi; 3-termojuftlik; 4-to'sqich; 5-pechka; 6-kvarts qopqog'; 7-modda materiali.



1.b. Rasm. $CdSe$, $CdSe_xS_{1-x}$ plyonkalarini sezgirligini orttirish kamerasing sxematik ko'rinishi. 1-tigellar; 2- $CdCl_2$ yoki $CuCl_2$ bug'larini kirishi uchun tirqish; 3-yangi tayyorlangan namunalar.

Shunday qilib, taglik harorati $T=523\div 673\text{ K}$ bo'lgan holda, plyonkalarining keng qamrovli qalinliklarida ($5\div 20\text{ mkm}$) fotosezgir qatlamlarni olishga muvaffaq bo'ldik. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, hosil bo'layotgan plyonkalarining xususiyatlariga tarkibi, boshlang'ich materialning oldindan ishlanishi va texnologik parametrlari, ayniqsa bug'lantirish va cho'ktirish sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi. Taglik haroratining o'zgarishi plyonkalarining qarshiligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi (2. Rasm). Taglik harorati oshishi bilan kadmiy yuzasidan aks etish boshlanadi va tarkibi ko'proq stexiometrik bo'ladi va plyonkalarining qarshiligi ortadi. Taglik haroratining qarshilikka ta'sirining effektivligi bug'lanishdan oldin dastlabki materialni oldindan qayta ishlashga bog'liq. $CdTe$ yupqa qiya bug'langan qatlamlarni legirlash jarayoni ularni vakuumda $10^{-4}\div 10^{-5}$ mm.rt.st. haroratda bug'lantirish usuli bilan to'g'ridan-to'g'ri o'stirish vaqtida alohida tigellardan $CdTe$ va In ni tayyorlash orqali amalga oshirildi. Bug'lanadigan qo'shimchanning boshlang'ich massasi odatda asosiy yarim o'tkazgich birikmaning massasidan $3\div 7$ og'irlik % ni tashkil etdi. In bug'lanishi $2\div 3$ minutga kechiktirildi va asosiy materialning bug'lanishidan $3\div 5$ minut oldin to'xtatildi.



2. Rasm. CdSe plyonkasining solishtirma qarshiligining taglik haroratiga bogʻliqligi.


qisqa tutashuv fototoki esa ikki tartibdan koʻproq oshdi va $I_{q,t} \approx 10^{-8}$ A ga yetdi. Termik ishlov berilgan CdTe:In plyonkalarining elektrofizik va AFV xususiyatlari sezilarli darajada barqarorlashdi. Vakuumda yoki CdCl₂ bugʻlarida havoda termik ishlov berishda 1.2÷1.5 mkm qalinlikdagi plyonkalar talab qilindi, 1.0 mkm dan yupqa plyonkalar esa bunday termik ishlov berishda ishdan chiqdi.

3. Rasmda tabiiy yorugʻlik manbai boʻlgan lampochka yorugʻligi bilan doimiy ravishda yoritishda maksimal fotokuchlanishning toza havoda termik ishlov berish vaqtiga bogʻliqligi koʻrsatilgan, yorugʻlik intensivligi $L \approx 10^4$ lk. 1-6-egri chiziqlar bir xil vakuum texnologik partiyadan olingan turli xil termik ishlov berilgan CdTe:In namunalari tegishli. Rasmda koʻrinib turibdiki, termik ishlov berish harorati 470 K dan 770 K gacha oshganda, optimal termik ishlov berish vaqti 46 minutdan 7 minutgacha kamayadi. Barcha namunalarning fotovoltai xususiyatlarini termik sezgirligi kinetikasi bir xil qonuniyatni koʻrsatadi: dastlab termik ishlov berish vaqtining oshishi bilan V_{AFK} qiymati monoton ravishda oʻsib boradi, maksimal qiymatga $\sim 3.5 \cdot 10^3$ V ga etadi va keyingi termik ishlov berishda V_{AFK} qiymati vaqt boʻyicha deyarli eksponentsial ravishda kamayadi. V_{AFK} ning termik sezgirligi kinetikasida turli xil xarakterli oʻsish vaqti t_o va pasayish vaqti t_c CdTe:In plyonkalarining termik sezgirlik va termik buzilish jarayonlarining turli tezliklarini aks ettiradi. Qiziq tomoni shundaki, CdSe:Cu fotooʻtkazuvchan plyonkalarining fotosezgirligi $K = \sigma_{\phi} / \sigma_{mem}$ koʻpayishi va termik sezgirligining kinetikasi ham sifat jihatidan oʻxshash xarakterga ega. Aynan shu oʻxshashlikni amalga oshirish CdTe:In plyonkalarining AFV termal sezuvchanligi muammosiga oydinlik kiritadi. 3. Rasmda kirishma egri chizigʻi. shuni koʻrsatadiki, CdTe:In plyonkasining AFV optimal issiqlik sezuvchanligi vaqti plyonkaning toblanish

Shisha taglikning harorati 250÷400 °C oraliqida oʻzgartirildi. Yangi tayyorlangan $d \approx 0.8 \div 1.5$ mkm qalinlikdagi va 5×20 mm² maydondagi CdTe:In polikristall namunalari (kondensatsiya tezligi $v_k \approx 1.5 \div 2.0$ nm/s, bugʻlanish burchagi 30÷60°) pastroq qarshilikli va nisbatan zaif boʻlgan anomal fotovoltai xususiyatlariga ega boʻlib chiqdi ($V_{AFK} = 50 \div 100$ V). Biroq vakuumda, toza havoda yoki CdCl₂ bugʻlari mavjud boʻlgan havoda termik ishlov berilgandan soʻng, namunalarning qarshiligi 2-3 baravarga oshdi va shu bilan birga xona haroratida ular $(2 \div 4) \cdot 10^3$ V gacha maksimal fotokuchlanish hosil qildi. Maxsus legirlanmagan CdTe namunalari (bu erda $V = 200 \div 600$ V) nisbatan bir tartibga koʻproq,

haroratining oshishi bilan deyarli eksponensial ravishda pasayadi va bu, ehtimol, termal sezgirlik kinetikasining diffuziya xususiyatini ko'rsatadi.

Plyonkalarining qalinligi ММИ-1 interferension mikroskopi yordamida, ba'zi



3. Rasm. $L \approx 10^4$ lk intensivlikdagi tabiiy yorug'lik bilan yoritilganda V_{AFK} V fotopolyarizatsiya kuchlanishining CdTe plyonkalarini TIB vaqtiga bog'liqligi: In har xil haroratda havoda T, K: 1-470, 2-520, 3-570, 4-620, 5-670, 6-770. 1-6 egri chiziqlar bo'yicha hisoblangan tavlanişning optimal vaqtining haroratiga bog'liqligi ko'rsatilgan.

hollarda esa $\pm 0,5$ mkm aniqlik bilan og'irlik usuli bilan aniqlandi. Namunalarning tuzilishi UEMV-100 B elektron mikroskopida, fazaviy tarkibi esa URS-50 rentgen apparati va mis anodli 0,4 bsv-3 kamerasi bilan bilan o'rganildi. Difraksion chiziqlarni ionizatsion qayd qilish uchun $NaI(Te)$ hisoblagichi va $DPOH-3.0$ rentgen difraktometrini asos qilib olingan impulslarni hisoblash tizimi ishlatilgan.

Xoll effekti o'lchovlari Litva Fanlar Akademiyasi Yarimo'tkazgichlar Fizikasi Institutida ishlab chiqilgan qurilmada o'tkazildi, bu qurilma zaryad tashuvchilarning harakatchanligini $10^{-5} m^2/V \cdot s$ gacha va undan kamroq o'lchashlarni amalga oshirish imkonini beradi. O'tkazuvchanlik (σ), effektiv harakatchanlik (μ_{eff}) va tashuvchilar konsentratsiyasi (n) quyidagi formulalar bo'yicha aniqlandi [164].

$$\sigma = \frac{c}{e \cdot d} \cdot \frac{J}{V_{\sigma}}, \quad (1)$$


$$n = \frac{1}{R_H e} = \frac{J_x B}{d V_y e}, \quad (2)$$

$$\mu_{eff} = \frac{2 V_y c}{V_\sigma \cdot B \cdot e}, \quad (3)$$

bu yerda c , b , d -mos ravishda namunaning uzunligi, kengligi va qalinligi, J_x - namunadan o'tadigan tok zichligi, V_σ -o'tkazuvchanlikni o'lchash uchun elektrodlar orasidagi kuchlanish pasayishi, V_y -Xoll kuchlanishi, e -elektron zaryadi, R_H -universal Xoll doimiysi, B -magnit maydon induksiyasi ($\sim 0,1$ T). Qurilma turli xil nurlanish intensivligida $100 \div 500$ K harorat oralig'ida o'lchovlar o'tkazish imkonini berdi.

Uchinchi bob “Fotosezgir $CdSe_xS_{1-x}$ plyonkalarining elektrofizik va fotoelektrik xossalari o'rganish” deb nomlangan va quyidagilar o'rganilgan: nuqtaviy markazlarining termo-maydon migratsiyasi sharoitida fotoo'tkazuvchanlik sezgirligining kinetikasi, yangi tayyorlangan va optimal sezgirlikka ega $CdSe_xS_{1-x}$ qattiq qorishmasidan tayyorlangan polikristall plyonkalarining LAX ga TIB ning ta'siri, plyonkalarining sezgirlik mexanizmi va r - va s - markazlarning tabiati aniqlandi. Polikristall plyonka namunalari uchun muvozanat o'tkazuvchanligining infraqizil va haroratli so'nishining asosiy xususiyatlari tasvirlangan. Eksperimental natijalar yarim o'tkazgich plyonka modeli asosida talqin qilingan, bu erda donalararo potentsial to'siqlar mavjud. $5 \times 25 \text{ mm}^2$ o'lchamli va $5 \div 10 \text{ mkm}$ qalinlikdagi $CdSe_{0.8}S_{0.2}$ polikristall plyonkalar o'rganildi. Plyonkalar $10^{-4} \div 10^{-5} \text{ mm.sim.us.}$ bosimda kvaziberk vakuumda $523 \div 573 \text{ K}$ gacha qizdirilgan shisha tagliklarga $CdSe_{0.8}S_{0.2}$ kukuni bug'lanishi orqali $80 \div 10 \text{ A/s}$ tezlikda o'stirildi. Plyonka tayyorlangandan so'ng, unga uch xil usulda TIB: vakuumda TIB, $10^{-4} \text{ mm.sim.us}$ bosimda 750 K haroratda taxminan 90 minut davomida; havoda TIB, $15 \div 20$ minut davomida; $CdCl_2$ yoki $CuCl_2$ bug'lari mavjudligida havoda TIB, $750 \div 800 \text{ K}$ haroratda $6 \div 8$ minut davomida. Bunday usulda tayyorlangan plyonkalar kuchli kompensirlanganligi aniqlandi (300 K da qorong'i solishtirma o'tkazuvchanlik $\rho_q \approx 10^5 \div 10^6 \text{ } \Omega \cdot m$) va yuqori fotosezgirlikka ega edi (tabiiy yorug'likning $\sim 10^2$ lx intensivligiga mos keladigan solishtirma fotoo'tkazuvchanlik $\rho_{y0} \approx 10 \div 10^2 \text{ } \Omega \cdot m$). Optimal TIB vaqti qorong'i va yorug'lik solishtirma o'tkazuvchanligining TIB vaqtidan bog'liqligi, ma'lum bir qizdirish haroratida (4. Rasm) aniqlandi. Plyonkalarni termik sezgirlik kinetikasi, TIB usuliga qaramasdan, bir xil qonuniyatni ko'rsatadi: dastlab ρ_q vaqti bilan monoton ravishda oshadi (ρ_{y0} kamayadi), $t = \tau_{op}$ da maksimal qiymatga etadi (ρ_{y0} minimal qiymatga etadi), keyin esa keskin kamayadi (oshadi). Barcha TIB $CdSe_{0.8}S_{0.2}$ plyonkalari $t = \tau_{op}$ da solishtirma o'tkazuvchanlik o'zgarishining

maksimal tartib $K = \sigma_{ph}/\sigma_d \approx 10^3 \div 10^5$,) ga ega bo'lib, keyinchalik "optimal sezgirlangan" deb ataladi.



4. Rasm. $CdSe_{0.8}S_{0.2}$ plyonkasining ρ_q , (○) ρ_{yo} , (●) va K (△) qiymatlarining havoda $CdCl_2$ (a) va $CdCl_2(0,8) + CuCl_2(0,2)$ (b) mavjudligida termik ishlov berish vaqtiga bog'liqligi ($L=10^2$ lx).

Fotoo'tkazuvchanlikni sezgirlash mexanizmini sifat jihatidan quyidagicha tushuntirish mumkin. Polikristall plyonkalarda termik migratsiya jarayonlari kristall donalarning hajmiy zaryadlari chegaraviy sohalarining kuchli elektrostatik maydonlari mavjudligida, ya'ni ionlarning **termo-maydon migratsiyasi** sharoitida sodir bo'ladi. Dastlabki TIB momentlarida kadmiy atomlarining kristallitlar hajmidan vakuumga oqimi selen va oltingugurtning shunga o'xshash oqimidan ko'proq bo'ladi, ya'ni vaqt o'tishi bilan kadmiy vakansiyalarining konsentratsiyasi V_{Cd} oshadi, bu esa plyonkaning qorong'i solishtirma qarshiligining oshishiga olib keladi. Ma'lumki, kadmiy vakansiyasi taqiqlangan zonada ikkita akseptor darajasini hosil qiladi, ular mos ravishda tez (**s-markaz**) va sekin (**r-markaz**) rekombinatsiya markazlari bo'lib, ular darhol mayda donor sathidan elektronlarni ushlab oladi va qisman ularni kompensatsiya qiladi (5. Rasm). Vaqt o'tishi bilan donor markazlarining kompensatsiya sathi oshadi va shu sababli plyonkaning qorong'i solishtirma qarshiligi monoton ravishda oshadi. Biroq, TIB ning ma'lum bir nuqtasidan boshlab donor markazlarining maksimal kompensatsiyasi (V_{Se}^{+1}) sodir bo'ladi va shuning uchun shu nuqtadan boshlab qorong'i qarshilik to'yinganlikka erishadi. Ushbu jarayonning shartlarini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{N_d(t) - N_r(t)}{N_s(t)} = const, \quad (4)$$

bu yerda $N_r(t)$, $N_s(t)$, $N_d(t)$ - sekin, tez rekombinatsiya markazlari va donor markazlarining konsentratsiyalari. ρ_q to'yinish vaqti TIB harorati oshishi bilan kamayishi, panjara tugunlaridagi atomlarning kinetik energiyasining oshishi bilan


izohlanadi, bu esa ionlarning termo-maydon migratsiyasi tezligini oshiradi va natijada kristalli donalarning panjarasida vakansiya hosil bo'lishini kuchaytiradi.

Tabiiyki, plyonkaning sezgirlash jarayoni quyidagi shartlar bajarilgan paytdan boshlab sodir bo'lishini kuzatish mumkin:

$$\frac{P_s}{N_r} < 1, \quad \frac{N_D - N_r}{N_s} \leq 1 \quad (5)$$

(bu yerda P_s - s -markazlarning band bo'lmagan holatlar soni). Quyidagi shart bajarilganda:

$$\frac{N_D(t) - N_r(t)}{N_s(t)} = const < 1 \quad (6)$$




5. Rasm. $CdSe_{0.8}S_{0.2}$ taqiqlangan zonasidagi energiya stahlari sxemasi va mumkin bo'lgan elektron o'tishlari.

plyonkaning yorug'lik qarshiligi va fotosezgirli (FS) ham o'tkazish vaqtidan qat'i nazar, plyonkaning optimal sezgirlashuvi sodir bo'ladi. Plyonkani yoritishda, r -markazlar elektronlar bilan to'liq to'ldirilganda, valentlik zonasidan teshiklarni ushlab qolish ehtimoli yuqori bo'ladi, s -markazlar esa erkin elektronlarni intensiv ravishda ushlab qoladi. Natijada, dastlab r -markazlarda bo'lgan


elektronlar tez rekombinatsiya markazlariga o'tib ketadi, bu esa elektronlarning yashash vaqtini va o'tkazuvchanlik zonasidagi konsentratsiyasini keskin oshiradi.

$$I_{ph} = AL^\alpha \quad (7)$$

LAX ning α ko'rsatkichi nafaqat turli namunalarda, balki bir xil fotorezistor uchun ham yorug'lik intensivligi diapazoniga qarab turli qiymatlarni olishi mumkin. Uchta holatni ajratib ko'rsatish mumkin: $\alpha=1$ (chiziqli), $\alpha<1$ (subchiziqli) va $\alpha>1$ (supperchiziqli). $300 K$ da optimal sezgirlantirilgan $CdSe_xS_{1-x}$ namunalarning LAX uchta qismdan iborat (6.b. Rasm, 1 va 4-egri chiziqlar). Biroq, monokristallar bilan taqqoslaganda, past yoritilganlik holatlarida dastlab chiziqli, keyin esa $\alpha\sim 0,5$ bo'lgan quyichiziqli kuzatiladi (past fotosezuvchanlik (FS) sohasi). $L\sim 10$ lx yoritilishidan boshlab, LAX (o'rtacha FS sohasi, $\alpha\sim 3,5$) kattaroq bo'lganda, fototok keskin ortadi. Yorug'lik intensivligi yanada oshganda, LAX chiziqli bog'liqlikka o'tadi (yuqori FS sohasi). Yuqorichiziqli LAX ga mos keladigan yorug'lik intensivligining o'zgarish diapazoni bir tartibdan oshmaydi.



6.a. Rasmda TI berilmagan CdSe_{0.8}S_{0.2} plyonkasining turli harorat va kuchlanishlarda olingan LAX ko'rsatilgan: T= 200 K (1-chiziq), 300 K (3, 5), 323 K (2, 4); U=5 V (2,3-chiziq), 10 V (1, 4,



6.b. Rasm. CdSe_{0.8}S_{0.2} plyonkalarining LAX, "vakuum+CdCl₂" (1-3) va "havo+CdCl₂" (4) usullarida sezgirlashtirilgan, T = 300 (1, 4), 210 (2) va 350 (3) K da

Bu esa rekombinatsiya markazlari bo'shliqlarining konsentratsiyasi erkin elektronlar konsentratsiyasidan mustaqil ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi ($n \gg P_r, P_s$). Optimal sezgirlik vaqtidan ko'proq vaqt davomida qizdirilgan namunalar uchun LAX ning $m = \text{const } n^k$ (bu yerda $k < 1$, n va m - erkin va energetik sathlarida joylashgan elektronlarning konsentratsiyalari) bo'lgan holat amalga oshiriladi va namunaning FS yorug'lik intensivligi qiymatining barcha sohalarida pasayadi.


Yuqorida muhokama qilingan LAX xususiyatlarini batafsil tahlil qilish uchun qo'shimcha ravishda $\mu(L)$ va $n(L)$ bog'liqliklari o'lchandi. Aniqlandiki, past yorug'lik intensivligida elektronlarning harakatchanligi μ dastlab $\gamma \approx 1$ ko'rsatkichi bilan (ya'ni keyin $\mu \sim L^\gamma$) o'sib boradi, so'ngra $\gamma \approx 0,5$ bilan o'sib boradi, ularning konsentratsiyasi esa deyarli o'zgarmaydi (7. Rasm). Yorug'lik intensivligi $L \approx 10 \div 15$ lx dan boshlab elektronlarning konsentratsiyasi keskin o'sib boradi ($n \sim L^\beta$, $\beta \approx 2,8$), shu bilan birga μ yorug'lik intensivligi oshishi bilan deyarli o'zgarmaydi. Ushbu bog'liqliklar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: qorong'ida va past yorug'lik sharoitida CdSe_xS_{1-x} plyonkalarida to'siq (μ -) o'tkazuvchanlik mexanizmi amalga oshiriladi, yuqori yorug'lik darajalarida esa μ -mexanizm, uning L ga bo'lgan zaif bog'liqligi bilan ko'rsatiladi va hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Shuning uchun polikristall namunalarning statsionar fotoo'tkazuvchanligini aniq hisoblash

uchun to‘siq va konsentratsion (n -) fotoo‘tkazuvchanlik mexanizmlarini hisobga olgan modelni asos qilib olish kerak.

Ma'lum bo‘lishicha, optimal sezgirlikka ega $CdSe_xS_{1-x}$ polikristall plyonkalari qorong‘i elektr o‘tkazuvchanligi σ_t ning haroratga anomal bog‘liqlikni namoyon qiladi: $150 \div 300 K$ oralig‘ida harorat oshishi bilan σ_t $3 \div 5$ tartibga kamayadi. Bu hodisani biz **qorong‘i** (muvozanat yoki dastlabki) **o‘tkazuvchanlikning termik so‘nishi (QO‘TS)** deb ataymiz, chunki u ko‘plab xususiyatlar bo‘yicha **fotoo‘tkazuvchanlikning termik so‘nishi (FTS)** hodisasiga o‘xshashdir. Ma'lum bo‘lgan ishlardan farqli o‘laroq, $CdSe_xS_{1-x}$ plyonkalarida birinchi marta yuqori krishmali fotoo‘tkazuvchanlik, ya'ni **qorong‘i o‘tkazuvchanlikning infraqizil nurlanishda so‘nishi (QO‘IQS)** aniqlandi. Ko‘rsatilganidek, QO‘TS va QO‘IQS faqat r - va s -rekombinatsiya markazlari va samarali ishlaydigan kristallararo to‘siqlarga ega bo‘lgan optimal fotosezgir namunalarda kuzatiladi.

Bu effekt mayda donli tuzilishga va 1 mkmdan kam qalinlikka ega yangi bug‘latilgan plyonkalarida kuzatilmadi. Bundan tashqari, QO‘TS va QO‘IQS deyarli bir xil harorat ($150 \div 300 K$) va spektral ($1.0 \div 3.0 \text{ mikron}$) diapazonlarda sodir bo‘ladi. $\sigma_q(T)$ ning bog‘liqligi $\sigma_{yo}(T)$ ga o‘xshab, ikkita qismdan iborat $E_{r,r} \sim 0.14-0.4 \text{ eV}$ aktivatsiya energiyasi bilan sekin pasayuvchi ($150 \div 230 K$) va $E_{r,r} \sim 0.6 \div 1.0 \text{ eV}$ bilan keskin pasayuvchi ($230 \div 300 K$).

QO‘IQS $T < 300 K$ va zaif $I_{ir} < 10^{-1} \text{ lx}$ intensivlikdagi infraqizil yorug‘likda, $1.0 \div 3.0 \text{ mikron}$ diapazondagi qo‘shimcha spektral yutilishda sezilarli darajada namoyon bo‘ladi, $I_{ir} < 10^{-1} \text{ lx}$ da esa aniq qo‘shimcha fotoo‘tkazuvchanlik kuzatiladi. $T = 300 K$ da o‘rganilgan $CdSe_xS_{1-x}$ ($CdCl_2$) namunalari quyidagi nuqtaviy nuqson turlariga ega: r -markazlar $E_r = E_v + (0.62 \pm 0.04) \text{ eV}$ aktivatsiya



7. Rasm. $CdSe_{0.8}S_{0.2}$ plyonkalari uchun elektronlarning harakatchanligi (1, 2) va konsentratsiyasi (1', 2') ning yorug'lik intensivligiga bog'liqligi. Plyonkalar "vakuum+CdCl₂" (1, 1') va "bozdyx+CdCl₂" (2, 2') usullarida sezgirlashtirilgan. Shuningdek, "bozdyx+CdCl₂" usulida sezgirlashtirilgan plyonkalar uchun μ (L) ning ikki tomonlama logarifmik shkalada (nuqtali chiziq) bog'liqligi keltirilgan.


energiyasi, $N_r \leq 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ konsentratsiyasi va $S_{pr} \approx 10^{-14} \text{ sm}^2$ teshiklar uchun tutuvchi kesimi bilan. Shuningdek, quyidagi parametrlarga ega chuqur tuzoqlar: $E_t = E_c + (0.30 \pm 0.04) \text{ eV}$ aktivatsiya energiyasi, $N_t = 10^{14} \text{ sm}^2$, $S_{nr} \approx 10^{-18} \text{ sm}^2$ va $E_s = E_v + (0.90 \pm 0.04) \text{ eV}$ energiyali tez rekombinatsiya markazlari, shuningdek, E_{rr} qo‘shimcha fotosezgirlik sathi mavjud. Qorong‘i tokning pasayishini nisbiy miqdor bilan tavsiflash qulay

$$\Gamma = (j_0 - j)/j_0, \quad (8)$$

bu yerda j_0 - j nurlanish (yoki haroratli so‘nish) bo‘lmagan holda tok zichligi. 8. Rasmda ko‘rinib turibdiki, harorat oshishi bilan QO‘IQS spektrining maksimal qiymati va yarim kengligi kamayadi, shu bilan birga uning qizil chegarasi sezilarli darajada qisqa to‘lqinli tomonga siljiydi. $T = 150 \text{ K}$ da QO‘IQS spektri, shuningdek, infraqizil fotosezgirlikni so‘nish spektri (1'-egri chiziq) ham aniq ikki tomonlama tuzilishga ega bo‘lib, qizil chegarasi $\lambda_r = 2.8 \text{ mkm}$ ni tashkil qiladi.

QO‘TS va QO‘IQS uchun quyidagi mexanizm taklif etiladi. Muvozanat holatida qo‘shni kristallitlar chegarasidagi energetik sathlarning egilishi va sirt akseptor sathlarining samarali ta'siri tufayli fazoviy zaryad sohasidagi rekombinatsion r -markazlar, kvazineytral hajmga nisbatan, qisman to‘ldirilgan bo‘ladi. s -markazlar esa ikki marta zaryadlangan kadmiiy bo‘shlig‘i V_{Cd} bilan bog‘langan holda bo‘shab, bir marta zaryadlangan V_{Cd} (r -markaz) holatiga o‘tadi. Bu esa chegarada r -markazlar konsentratsiyasining oshishiga olib keladi (9-rasm).

QO‘TS da fononlarni yutish yoki QO‘IQS da IQ nurlanish kvantlarini yutish fazoviy zaryad sohasida elektronlarni valentlik zonasidan bo‘sh r -markaz sathlariga o‘tishga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga hosil bo‘lgan bo‘sh teshik o‘tkazuvchanlik zonasidagi erkin elektronlar bilan r va s -markazlar orqali yoki sirt sathlari orqali rekombinatsiya jarayonlarida ishtirok etadi, natijada muvozanatli o‘tkazuvchanlik elektronlarining o‘rtacha konsentratsiyasi va shu bilan birga qorong‘i o‘tkazuvchanlik kamayadi.




8. Rasm. $\text{CdSe}_x\text{S}_{1-x}$ plyonkalarining Γ_{IRT} muvozanat o‘tkazuvchanligini IQ so‘nish spektrlari turli haroratlarda $T, \text{ K}$: 1-150, 2-200, 3-250. 1'-egri chiziq - QO‘IQS spektri, 4-egri chiziq esa $T=150 \text{ K}$ da QO‘TS ning haroratga bog‘liqligi.

